

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARINING SHAKLLANISHIDA GENDER TAMOIYLLARINING MOHIYATI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-668-673>

Ibodullayeva Farangiz

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi,
2-kurs talabasi

ibodullayevaaynoraxon@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Xaydarova Ra‘no Anvarovna**

Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlik davrida gender qarashlarining shakllanishi, gender xoslik va tengdoshlarning o‘zaro ta‘siri tahlil qilinadi. O‘smirlik (11-16 yosh) shaxsiyat rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda bolalar jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan o‘zgaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender identitetning asosiy jihatlari – gender o‘zini ifodalash, genderni moslik, gender guruhidan qoniqish, gender me‘yorlariga rioya qilish va genderlararo tarafdashlik – o‘smirlik davrida tengdoshlar, oila va jamiyat ta‘siri ostida shakllanadi. Tengdoshlar bilan muloqot va ijtimoiy muhit gender normalarini qabul qilish va unga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, biologik, ijtimoiy va madaniy omillar gender qarashlarining rivojlanishiga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Maqola gender tengligi va stereotiplarni tushunish bo‘yicha ta‘limiy muhitning ahamiyatini ham yoritadi, bu esa o‘smirlarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, gender qarashlar, gender identitet, gender xoslik, tengdoshlar ta‘siri, ijtimoiy me‘yorlar, gender stereotiplari, shaxsiy identitet, ta‘limiy muhit.

Аннотация. В статье рассматривается формирование гендерных установок, гендерной идентичности и влияние сверстников в подростковом возрасте. Подростковый период (11–16 лет) является ключевым этапом развития личности, сопровождающимся физическими, психологическими и социальными изменениями. Исследования показывают, что основные аспекты гендерной идентичности — гендерная самоидентификация, соответствие гендерным нормам, удовлетворённость своей гендерной группой, соблюдение гендерных норм и межгрупповая предвзятость — формируются в подростковом возрасте под влиянием сверстников, семьи и общества. Взаимодействие со сверстниками и социальная среда играют важную роль в усвоении и соблюдении гендерных норм. Биологические, социальные и культурные факторы совместно влияют на формирование гендерных установок. В статье также подчеркивается важность образовательной среды, способствующей гендерному равенству и осведомлённости о стереотипах, что существенно влияет на социальное и психологическое развитие подростков.

Ключевые слова: Подростковый возраст, гендерные установки, гендерная идентичность, соответствие гендеру, влияние сверстников, социальные нормы, гендерные стереотипы, личностная идентичность, образовательная среда.

Abstract. This article examines the formation of gender attitudes, gender identity, and the influence of peers during adolescence. Adolescence (ages 11–16) is a crucial stage in personality development, marked by physical, psychological, and social changes. Research shows that key aspects of gender identity—gendered self-categorization, gender typicality, gender contentedness,

gender conformity, and gendered intergroup bias—are shaped during adolescence under the influence of peers, family, and society. Peer interactions and social environments play a significant role in adopting and conforming to gender norms. Biological, social, and cultural factors jointly influence the development of gender attitudes. The article also highlights the importance of educational environments that promote gender equality and awareness of stereotypes, which significantly impact adolescents’ social and psychological development.

Keywords: *Adolescence, gender attitudes, gender identity, gender typicality, peer influence, social norms, gender stereotypes, personal identity, educational environment*

O‘smirlik davri shaxs shakllanish doirasidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. O‘smirlik bolalikdan kattalikka-o‘spirinlikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi[1]. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti jadallashadi, shuningdek, o‘ziga nisbatan “men” shakllana boshlaydi, xususan, ijtimoiy ong rivojlanishi va jamiyatdagi normativ me‘yorlarga moslashish davri hamdir. Aynan ushbu davrda o‘smirlar jamiyat tomonidan yaratilgan gender stereotiplari va qadriyatlarini o‘zlashtiradi, bu esa ularning ta‘limdagi faoliyati, ijtimoiy rollari va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Gender identifikatori bolaning tug‘ilishidan boshlab shakllana boshlaydi. Bu jarayondan so‘ng gender sotsiologiyasining ta‘siri bolaning keyingi bosqichlarda qay tarzda tarbiyalanishiga asosiy omil bo‘ladi. Ya‘niykim, bola o‘sha jamiyatda qabul qilgan “ayol” va “erkak” g‘oyalariga tayangan holda ota-onasi tomonidan maqsadli ravishda tarbiyalanadi. Jamiyatdagi gender tenglikka nisbatan o‘zaro qarashlar, standartlar asosida bolaning jinsi, xatti-harakati, ijtimoiy va psixologik rollari hamda o‘z-o‘zini qadrlash to‘g‘risidagi g‘oyalari rivojlanadi[2]. Bolalarda o‘z jinsi haqidagi tafakkur bir yarim yoshda shakllanadi va o‘z-o‘zini anglashni boshlaydi. Yosh va jinsiy o‘ziga xoslik bir maromda rivojlanadi, uning hajmi kengayadi va tuzilishi o‘zib boradi. 2 yoshli bola o‘zining jinsini farqlay oladi. Bunga misol sifatida ular o‘ynaydigan o‘yinchoqlar: o‘gil bolalar asosan hayvonlar shaklidagi, qizlar esa qo‘g‘irchoqlarni o‘ynash bilan mashg‘ul bo‘lishadi. 3-4 yoshga kirgan bola ongli ravishda atrofidagi insonlarning jinsini farqlay oladi, lekin buni tashqi omillar orqali ifodalaydi. Bola o‘z jinsini to‘liq anglab olguncha uning gender haqidagi standartlari o‘zgaruvchan tartibda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, 2 3 yoshli qizaloq o‘g‘il bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar bilan o‘ynashi kabi holatlar bunga misoldir. Agar ushbu qizaloq oilada bir nechta o‘g‘il farzandlar orasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa, albatta, bu muhit uning gender qarashlariga ta‘sir o‘tkazadi. Gender qaytarilmasligi taxminan 6-7 yoshdagi bolalar tomonidan tan olinadi, bu jarayonda xatti-harakatlar va munosabatlarning jinsiy farqlanishi kuchayadi[3].

Navbatdagi eng muhim bosqich bu o‘smirlik davri hisoblanadi. Bunda gender identifikatori o‘z-o‘zini anglashning markaziy tarkibiy qismiga aylanadi. Bu davrda bolalar asosan vaqtini maktabda o‘z tengdoshlari bilan o‘tkazadi. Ushbu jarayonda ular avval duch kelmagan shakldagi gender qarashlari bilan yuzlashadi. Dastlab,

bolalarda gender tenglik haqidagi ilk tushunchalar oilada shakllanadi. Har bir oilada bu qarash bo'yicha tur xil qadriyatlar mavjud. Misol uchun bir oilada uy ishlari faqatgina ayollarning mas'uliyatida deb qaralsa, boshqa bir oilada bu kabi yumushlar ikki jins vakili o'rtasida teng taqsimlanishi kerak deb hisoblanadi. Bolalar tur xildagi muhitda ulg'ayishadi va keyinchalik o'smirlik davrida boshqa shakldagi qarashlar bilan duch kelishi natijasida ularda gender normalarning o'zgarishlari kuzatiladi. Ya'ni gender qarashlari o'zgarmas emas, aksincha vaqt o'tishi bilan rivojlanib boradi[4].

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, o'smirlik davri bir nechta muhim rivojlanishlarini o'z ichiga oladi. Birinchidan, o'smirlarda balog'atga yetish jarayonini boshlanadi va ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'lishi kabi yaqqol jismoniy o'zgarishlar bilan kechadi[5]. O'smirlar bu kabi jismoniy va hissiy tana o'zgarishlarini anglay boshlaydi, shuningdek, ularning ijtimoiy muhitidagi insonlar ham buni sezadi, natijada esa kommunikativ munosabatlarda gender omili avvalgi rivojlanish bosqichlariga nisbatan muhimroq rol egallay boshlaydi[5,6]. Ikkinchidan, o'smirlar balog'at yoshiga yetib borgan sari jamiyatdagi munosabatlar ham o'zgaradi: ulardan biologik jinsi va unga mos bo'lgan gender standartlariga muvofiq xulq-atvor bilan muomala qilishi talab qilinadi va kutiladi[5,7,8,9]. Misol uchun Sharq mamlakatlarida o'smirlik yoshiga yetgan qizlarga xos bo'gan xususiyatlar og'ir-bosiqlik, muloyimlik sanaladi. Natijada ota-onalar ulg'ayishni boshlagan qiz farzandlaridan shu hislatlarni shakllantirishini talab qiladi. Uchinchidan, o'smirlarda kognitiv-aqliy tafakkurga oid rivojlanish- sodir bo'ladi. Ular umumiy tushunchalar va g'oyalar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda tengdoshlariga nisbatan ijtimoiy taqqoslashlarni amalga oshiradi[10,11]. Bu jarayon ijtimoiy me'yorlarni, ayniqsa gender normalarini chuqurroq anglash imkonini beradi[12], shu bilan bir qatorda o'smirlarning genderga mos xulq-atvor, xatti-harakatlar va qat'iy jinsiy stereotiplarga e'tiborini oshiradi[5,13].

O'smirlik davrida jismoniy, ijtimoiy va kognitiv o'zgarishlar bilan bir qatorda, shaxsiy identitet rivojlanadi. Gender roliga munosabat ta'lim va kasb tanlovida muhim sanalganligi tufayli, o'smirlik davrida bu qarashlar qanday shakllanishini o'rganish muhimdir. Egan va G. Perry[14] tomonidan ta'riflangan ko'p qirrali (multifaceted) tushuncha asosida, gender identitet besh jihatdan tavsiflanadi:

Xususiyat (Gender identitet elementi)	Tushuntirish/izoh	Misol
<i>Gender o'zini ifodalash (gendered self-categorization)</i>	Shaxsning o'zini muayyan gender guruhiga mansub deb his qilishi	“Men qiz/ Men o'g'il bolaman” o'zini ifodalash
<i>Genderga moslik (gender typicality)</i>	Shaxsning o'zini shu gender guruhiga mos deb his qilishi	Qiz bolalar odatda muloyim va uy ishlariga qiziqadi, o'g'il bolalar esa sport va texnikaga qiziqadi.
<i>Gender guruhidan qoniqish (gender contentedness)</i>	Shaxsning o'z gender guruhidan qoniqish darajasi	“Men qizlar/o'g'illar guruhiga mansub ekamligimdan

		mamnunman”.
<i>Gender me'yorlariga rioya qilish (gender conformity)</i>	Shaxsning gender me'yorlariga moslashish bosimini his qilishi	Guruhdagi qoidalar va stereotiplarga moslashishga intilish
<i>Genderlararo tarafkashlik (gendered intergroup bias)</i>	Shaxsning boshqa genderlarga nisbatan munosabati, ustunlik yoki tarafkashlik hissi	“O'g'illar qizlardan yaxshiroq/qizlar o'g'illardan aqlliyoq” deb o'ylash

Shaxsning o'zini biror bir gender guruhiga mansub deb bilishi hayotning erta bosqichlarida shakllanadi, qolgan jihatlar esa asosan o'smirlik davrida ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi[15].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida gender normalarining shakllanishida tengdoshlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'smirlar asosiy vaqtini do'stlari, sinfdoshlari davrasida o'tkazadi hamda ularda jismoniy va ma'naviy, shuningdek ijtimoiy munosabatlarning tarmog'i kengaya boshlaydi. O'smirlar avvalgi yosh davrlariga nisbatan tengdoshlariga ko'proq e'tibor qaratadi, o'zlarini ular bilan ham aqliy, ham fiziologik jihatdan solishtiradi. Ular o'z gender guruhlariga mansublik hissini his qilish uchun hamda rad etilish va chetlatilishdan, ajratilishdan (“separated”) qochish maqsadida tengdoshlari tomonidan qabul qilinishga faol intiladilar. Bu qabul qilinish esa o'z navbatida ijtimoiy me'yorlarga, jumladan gender me'yorlariga moslashish bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, o'smirlikda “erkaklik” va “ayollik” ga oid normalarga mos kelgan o'smirlar qolgan tengdoshlari tomonidan qabul qilinishi osonroq bo'ladi. Dr. Olga Kornienko – George Mason universitetining Psixologiya fakultetida dotsent (Associate Professor) bo'lib faoliyat yurituvchi olim – o'z tadqiqotlarida tengdoshlarning gender identiteti rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Kornienko tadqiqotlarida jamoadagi gender me'yorlariga moslashish bosimi hamda guruhlar o'rtasidagi turli qarashlar farqi o'smirlik jarayonida kuchli ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan[15].

2024-yilda o'tkazilgan tadqiqot 15-19 yoshdagi 64 nafar Iordaniya va Suriya o'smirlarini o'rganib, bola davridan voyaga yetish jarayonida ijtimoiy va madaniy me'yorlar qanday qabul qilinishi va o'smirlarning gender identitetini shakllantirishga qanday ta'sir qilishini tahlil qildi. Ishtirokchilar hayotidagi muhim voqealarni vizual vaqt jadvallari yordamida chuqur intervyularda muhokama qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlar bolalikning tugashini gender rollari va identitetni shakllantirishdagi asosiy o'tish nuqtasi sifatida ko'rishadi. Me'yoriy gender rollar ikki asosiy ijtimoiy jarayon orqali qabul qilindi: birinchisi, tabiat va tarbiya (biologik va ijtimoiy) munozarasi, ikkinchisi esa jamoat sohasi erkaklarga, shaxsiy uy sohasi ayollarga tegishli degan an'anaviy qarashlar. Iltimoiy-psixologik tarafdin olib qaralsa, tadqiqot natijasi gender rollari nafaqat biologik, balki madaniy va ijtimoiy sharoitlar orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davri (taxminan 10-16 yosh) har bir shaxs hayotidagi ilk muhim burilish, shakllanish jarayonidir. Bu davrda inson shaxsiyatidagi barcha o‘zgarishlar uning kelajagiga, ijtimoiy hayotiga ulkan hissa qo‘shadi. Bu jarayonni boshdan o‘tkazayotgan o‘smirlar ota-onalari va do‘stlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj bo‘lishadi. Gender normalari va stereotiplariga moslashishda ular qiyinchilikka duch kelishlari mumkin, ammo to‘g‘ri tarbiya va yaxshi, kommunikativ muhit bu muammoni yengib o‘tishda yordam beradi. Shuningdek, o‘smirlar o‘zlarini ma‘lum bir genderga xos his qilish (gender xoslik) orqali o‘z identitetini aniqlaydi hamda tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlar ularning genderga oid qarashlarini mustahkamlashi yoki o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli tengdoshlar ta’siri, ijobiy va salbiy stereotiplardan xabardor bo‘lish, hamda gender tengligini targ‘ib qiluvchi ta’limiy muhit o‘smirlar uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, o‘smirlikda gender qarashlari shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayon bo‘lib, individual va jamiyat omillari o‘zaro uyg‘unlashib, yoshlarning kelajakdagi ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimov X.A. (2021). O'spiriklik davrining fiziologik-psixologik va jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari. Jurnal: "Scientific progress", volume 2
2. Kletsina, I.S. Psychologia gendernykh otnosheniy. Teoriya I praktika [Psychology of gen-der relations. Theory and practice]. Saint Petersburg: Aletheya. 2004.
3. Daminova Manzura Salimovna O'smirlarda gender identikligi shakllanishida ta'lim, oila muhiti va stereotiplarning roli(The role of education, family environment and stereotypes in the formation of gender identity in adolescences) . Jurnal: "Eurasian Jurnal of academic research". 2025
4. Davis, Shannon N. “Gender Belief System/Gender Ideology.” In The Wiley Blackwell Encyclopedia of Gender and Sexuality Studies, edited by N.A. Naples. Hoboken, NY: Wiley & Sons, Ltd. 2016.
5. Hill, John P., and Mary E. Lynch. “The intensification of gender-related role expectations during early adolescence.” Pp. 201-228 In Girls at puberty: Biological and psychosocial perspectives, edited by Brooks-Gunn and A. C. Petersen. New York: Springer Science Business Media 1983.
6. Kågesten, Anna, Susannah Gibbs, Robert W.M. Blum, Caroline Moreau, Venkatraman Chandra-Mouli, Ann Herbert, and Avni Amin. 2016. “Understanding Factors that Shape Gender Attitudes in Early Adolescence Globally:A Mixed Methods Systematic Review.
7. Basow, Suzan. A. “Gender role and gender identity development” Pp. 242-251 in Handbook of girls’ and women’s psychological health, edited by J. Worell and C. D. Goodheart. New York: Oxford University Press. 2006.
8. Clemans, Katherine. H., Laura, M. DeRose, Julia, A. Graber, and Jeanne Brooks-Gunn, J. “Gender in adolescence: Applying a person-in-context approach to

gender identity and roles.” Pp. 527-558 in Handbook of gender research in psychology: Gender research in general and experimental psychology, edited by J. C. Chrisler and D. R. McCreary. New York: Springer. 2010.

9. Pettitt, Lisa M. 2004. “Gender intensification of peer socialization during puberty.” New Directions for Child and Adolescent Development 2004.

10. Choudhury, Suparna, Sarah-Jayne Blakemore, and Tony Charman. “Social cognitive development during adolescence”. Social Cognitive and Affective Neuroscience 1(3): 165-174. 2006.

11. Ruble, Diane N., and Carol S. Dweck. “Self-perceptions, person conceptions, and their development”. Pp. 109-139 In Review of personality and social psychology: Vol. 15. Social development edited by N. Eisenberg. Thousand Oaks, CA: Sage 1995.

12. Lane, Cate, Clarissa L. Brudage, Tamara K. Kreinin. “Why we must invest in Early Adolescence: Early Intervention, Lasting Impact”. Journal of Adolescent Health 61(4): S10-S11. 2017.

13. Leman, Patrick J., and Harriet R. Tenenbaum. “Communication in children’s and adolescents’ social groups”. Pp. 144-163 In The Wiley Handbook of Group Processes in Children and Adolescents edited by A. Routland, D. Nesdale, and C. Spears Brown. Oxford: Wiley Blackwell. 2017.

14. Egan, Susan K., and David, G. Perry. “Gender identity: A multidimensional analysis with implications for psychosocial adjustment.” Developmental Psychology 37(4): 451–463. 2001.

15. Kornienko, Olga, Carlos E. Santos, Carol L. Martin, and Kristen L. Granger. “Peer Influence on Gender Identity Development in Adolescence.” Developmental Psychology 2016.

16. McHale SM, Crouter AC, Whiteman SD. The family context of gender development in childhood and adolescence. Social Development. 2003;

17. Stocké V, Blossfeld H-P, Hoenig K, Sixt M. Social inequality and educational decisions in the life course. Zeitschrift Für Erziehungswissenschaft. 2011